

## COVID-19 BILAN KASALLANGAN SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI BOR BEMORLARDA KOAGULYATSION GEMOSTAZDA O'ZGARISHLAR

Madazimova Dilrux Hayotjonovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17312192>

### Annotatsiya:

COVID-19 pandemiyasi global sog'liqni saqlash tizimiga katta tahdid solib, ayniqsa surunkali kasalliklarga ega bemorlarda og'ir klinik kechishlar va yuqori o'lim darajasi bilan tavsiflanadi. Surunkali buyrak kasalligi (SBK) bo'lgan bemorlar immun tizimining zaifligi, ko'p dori vositalarini qabul qilishi va qon ivish tizimidagi buzilishlarga moyilligi sababli xavf guruhiga kiradi.

**Maqsad:** COVID-19 bilan kasallangan SBK bemorlarida koagulyatsion gemostaz tizimidagi o'zgarishlarni baholash va ularning klinik ahamiyatini aniqlash.

**Material va metodlar:** Tadqiqotga olingan bemorlar ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh bemorlar – III bosqich SBK bor COVID-19 bilan kasallanmagan 60 nafar bemorlar, ikkinchi guruh - COVID-19 bilan kasallangan III bosqich SBK bor 60 nafar bemorlar olingan. Ushbu bemorlarda D-dimer, tomboositlar miqdori, fibrinogen darajalari baholandi.

**Natijalar:** Tekshiruvga olingan bemorlarni gemostaz ko'rsatkichlarini guruhlarda taqqosolaganimizda birinchi guruhdagi bemorlarda birinchi oyda fibrinogen ko'rsatkichi  $4,12 \pm 0.11$  ni tashkil qilgan bo'lsa uchunchi oyda bu ko'rsatich  $3,64 \pm 0.13$  ga teng bo'lganini va 10.3% ga pasayganini ko'rish mumkin, ikkinchi guruhda esa fibrinogen davolashdan keyingi birinchi oyida  $4,8 \pm 0.26$  ni tashkil qilgan, uchunchi oyda esa  $4,3 \pm 0.25$  bo'lgan va 10.4% ga pasayganini ko'rish mumkin. Yana muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan D dimerni tahlil qilganimizda birinchi guruhdagi bemorlarning birinchi oyida ushbu ko'rsatkich  $0,54 \pm 0,92$  ni tashkil qildi, 3-oyda esa  $0,48 \pm 0,1$  ni va 11,1% ga pasayganini ko'rish mumkin. Ikkinchi guruhdagi D dimer miqdori birinchi oyda  $0,71 \pm 0,01$  va 3 - oyda esa  $0,6 \pm 0,01$  ga teng bo'ldi va standart davo fonida 15,4% ga kamaygani aniqlandi. Trombotsitopeniya holatlari SBK bo'lmagan guruhga qaraganda 1.5 baravar ko'p aniqlangan.

**Xulosa:** COVID-19 bilan kasallangan SBK bemorlarida koagulyatsion tizimda sezilarli buzilishlar kuzatiladi. Bu holatlar tromboembolik asoratlar xavfini oshiradi va bemorlarning klinik boshqaruvini murakkablashtiradi. Erta tashxis va dinamik kuzatuv bu bemorlar guruhida og'ir asoratlarni kamaytirishga yordam beradi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Guan W, Ni Z, Hu Y, et al. Clinical Characteristics of Coronavirus Disease 2019 in China. N Engl J Med. 2020;382(18):1708–1720.
2. Cheng Y, Luo R, Wang K, et al. Kidney disease is associated with in-hospital death of patients with COVID-19. Kidney Int. 2020;97(5):829–838.
3. Vaziri ND, Pahl MV, Crum A, Norris K. Effect of uremia on structure and function of immune system. J Ren Nutr. 2012;22(1):149–156.
4. Levi M, Thachil J, Iba T, Levy JH. Coagulation abnormalities and thrombosis in patients with COVID-19. Lancet Haematol. 2020;7(6): e438–e440.
5. Suh YJ, Hong H, Ohana M, et al. Pulmonary Embolism and Deep Vein Thrombosis in COVID-19: A Systematic Review and Meta-Analysis. Radiology. 2021;298(2):E70–E80.